



SOLIQ SIYOSATINING SOLIQLAR BAZASIGA TA'SIRINI BAHOLASH USULLARI

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Soliqlar va soliqlar tortish" kafedrasiga katta o'qituvchisi

xalikchayeva@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 6

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss6/a12

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida soliq bazasini aniqlashning ahamiyati, soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastaklari va soliq bazasini aniqlash tariblariga soliq siyosatining ta'sir darajasi masalalari, shuningdek, soliq siyosatining soliqlar bazasiga ta'sirini aniqlash usullari ko'rib chiqilgan.

KEYWORDS

Soliqlar, soliq bazasi, soliq siyosati, soliq stavkasi, soliq imtiozi, soliq ma'muriyatichiligi, regressive soliq siyosati, progressiv soliq siyosati, barqaror soliq siyosati.

Kirish (Introduction/Введение).

Jahonda neoglaballashuv jarayoni kuchayib borayotgan bir sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbayi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi asosiy dastak bo'lsa, soliq siyosati belgilab beruvchi soliq bazasini aniqlash tartibi mamlakat iqtisodiyotining kuzatiladigan muhim ko'rsatkichlardan bирidir. "OECD mamlakatlari orasida (2022) soliqlarning YaIMga nisbati Fransiyada 45,1 %ni, Buyuk Britaniyada 33,1 %ni, AQShda 26,6 %ni, DANIYADA 46,9 %ni, Norvegiyada 42,2 %ni, Shvetsiyada 42,6 %ni tashkil etadi"[1]. Biroq, soliq bazasini aniqlash tartibi bilan bog'liq soliqlardan qochishda soliq bazasining yemirilishi, bu jarayoning murakkabligi, turli hududlar doirasida turlicha ekanligi soliq bazalarini solishtirish imkonini qiyinlashirishi muammolari soliq siyosatining soliqlar bazasiga ta'sirini o'rganishga zarurat tug'dirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Soliq bazasini aniqlash tartiblariga belgilab olingen soliq siyosati turlicha jihatdan turlicha ta'sir qilishi mumkinligi va uning implus ko'lami, qolaversa, soliq ma'muriyatichiligi oid qarashlari A.J.Auerbach va M.Feldshteyn tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan[2]. U soliq siyosat qarorlar soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida tushunchalarni o'rganib chiqqan bo'lsa, iqtisodchi olim R.A.Musgrave ham o'z tadqiqotlarida soliqlar tortish va uning davlat siyosatidagi rolini tadqiq qilgan. Musgraving tadqiqotlari davlat moliyasining turli jihatlariga, jumladan, soliq tizimlarini loyihalash va "optimal soliqlar tortish" konsepsiyasiga qaratilgan[3].

Yevropalik iqtisodchi olim A.Goolsbi soliq siyosati, uning biznes xatti-harakati va iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari soliq siyosatining korxonalar va jismoniy shaxslarning qarorlariga ta'siri hamda ushuq qarorlar iqtisodiy natijalarga qay darajada ta'sir ko'rsatishga qaratilgan[4].

Qolaversa, klassik iqtisodchi Artur Laffer soliq stavkalari va davlat soliq tushumlari o'tasidagi nazarliy bog'liqlikni Laffer egri chizig'i deb nomlangan ilmiy ishlammasida ta'kidlab o'tgan. Uning qarashlariga ko'ra, soliq tushumlarining hajmi juda past yoki o'ta yuqori soliq stavkalardira farq qilishini, biroq, shunday bir oraliq soliq stavkasida soliq tushumlari maksimal darajaga ko'tarilishini isbotlashga uringan. Ya'ni, olim, insoniyat past stavkali soliq siyosatida ishlashdan rag'batlanmasliklari yoki yuqori soliqlar tortish tufayli ishlashdan tushkunlikka tushishlarini asoslab bergan. Lafferning tadqiqot ishi natijasiga ko'ra, soliq siyosati,

jumladan, optimal soliq stavkalari va soliq bazasini aniqlash bo'yicha muhokamalarga va soliq siyosatidagi o'zgarishlar iqtisodiy o'sish va soliq bazasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligiga qaratilgan[5].

Taniqli iqtisodchi olim Stiglitz o'z tadqiqotlarida soliq iqtisodini va uning tengsizlikka ta'sirini keng tadqiq qilgan. Olim soliq siyosatining turli daromad guruhlariga qanday ta'sir qilishi va iqtisodiy tenglikni oshirish va tafovutlarni kamaytirishga yordam beradigan soliq tizimlarini mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lsa[6], E.Saez esa daromadlar tengsizligi va soliq siyosatini o'rgangan iqtisodchi bo'lib, soliq stavkalari va progressivlikdagi o'zgarishlar, daromad va soliq bazasini taqsimlashga qanday ta'sir qilishini o'rganib chiqqan[7].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalananilgan usullar (Methods/Методы). Tadqiqotda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda butun Jahon iqtisodiy hamjamiyat doirasi va soliq tizimida olib borilayotgan soliq ishshotlari, soliq siyosati, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti xujjalarni chucher o'rganish davomida analiz va sintez, iqtisodiy matematik usullar, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalilanigan.

Olingan natijalar (Results/Результаты). Olib borilgan tahlillar natijasida, O'zbekiston soliq siyosatida soliqlarning bazasini aniqlash tartiblari mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy darajasini yuksaltirishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi va soliq siyosati yo'nalishlarining belgilab olinishida rol o'ynovchi omillar ko'rasatib berilgan. Shuningdek, soliq siyosatining soliqlar tortish bazasiga ta'sirini baholash metodlari o'rganib chiqilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Ma'lumki, soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish, shuningdek, ushuq jarayonlarni yanada takomillashtirish kabi harakatlar yig'indisi soliq siyosati tartiblarini tashkil etadi[8].

"Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy moliyaviy siyosat turlari bilan bog'langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi. Aslida soliq siyosatining yadrosini jamiyatda ishlab chiqilgan yalpi milliy (ichki) mahsulotning va yangidan yaratilgan qiymat – milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari yo'lida markazlashtirilgan pul fondlari (asosan davlat byudjeti)ga jaib qilish masalasini hal etish yotadi"[9]. Mana shu masalaning hal etilishiga qarab fiskal va byudjet siyosatining yo'nalishlari

aniqlanadi. Agar davlat milliy daromadni qayta taqsimlashda iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini haddan tashqari kamaytirsada, u holda davlat byudjet siyosatini ham shunga moslashtirish zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, soliq siyosatining soliqqa tortish bazasiga ta'sirini tushunish siyosatchilar va iqtisodchilar uchun soliq tizimlarining samaradorligi va unumdoorligini baholash, o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shlular yoki kutilmagan oqibatlarni aniqlash hamda soliq islohotlariga oid zarur qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

Soliq sivosati soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblariga ta'sir qilish jihatlarining tarkibi¹

Ta'sir dastagi	Tasir doirasi
<u>Soliq imtiyozi</u>	Soliq sivosati soliqqa tortiladigan daromadni kamaytiradigan, shu bilan soliq solinadigan bazaga ta'sir qiluvchi chegirmalar yoki imtiyozlarga (biznes investitsiyalari, ta'lim xarajatlari yoki ipoteka foizlari to'lovini uchun ruxsat berishi mumkin). Ushbu chegirmalar daromadning bir qismini soliqqa tortishdan chiqarib tashlagan holda soliq solinadigan bazani pasaytiradi.
<u>Soliq kreditari</u>	Soliq sivosati muayyan faoliyat turi yoki harakatlar ketma-ketligiga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu kreditlar bevosita soliq tushumini pasaytirish orgali soliq solinadigan bazani kamaytiradi.
<u>Soliq stavkalar</u>	Turlu daromad darajalar yoki daromad turlari uchun har xil soliq stavkalarni belgilash orgali soliq sivosati umumiy soliq bazasiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, yugor daramadu shaxslar uchun yugor stavkalarga ega bo'lgan progressiv soliq tizimi ushbu shaxslar uchun soliq solinadigan bazani kamaytiradi.
<u>Eskirish va amortizatsiya qoidalari</u>	Soliq sivosati ko'pincha vaqt o'tishi bilan aktivlarning qiymati uchun amortizatsiya qoidalari o'z ichiga olib, soliq solinadigan daromaddan xarajatlarni ushlab qolish orgali soliq solinadigan bazaga ta'sir qilishi mumkin (tezlashtirilgan amortizatsiya qoidalari korxonalariga oldindagi yillarda aktivar tarmoxining katta qismini chegirish tashlash va soliq solinadigan bazani kamaytirishga imkon beradi).
<u>Transfer narxini belgilash qoidalari</u>	Turli yurisdiksyonalarda bog'liq subyektlari o'rtasida foyda qanday taqsimlanishiga belgilab beruvchi transfer narxlar qoidalari foydani o'zgarishim oldini olishga va soliqqa tortiladigan daromadning har bir yurisdiksiyaga tegishli tarzda taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qoidalari foyda taqsimotiga ta'sir qilish orgali yurisdiksyonalardagi soliq bazasiga ta'sir qila oladi.

1-jadvalga muvofiq soliq siyosati soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblariga chegirmalar, imtiyozlar, kreditlar, soliq stavkalari, amortizatsiya va transfer narxlar qoidalari orqali ta'sir qiladi. Ushbu siyosat tanlovlar soliqqa tortiladigan daromad miqdoriga va oxir-oqibat soliq bazasiga sezilarli ta'sir etishi mumkin.

Tadqiqotlar davomida shunga amin bo'ldikki, soliq siyosati soliq bazasiga quyidagi dastaklar orqali tasir o'tkazadi:




1-rasm. Soliq sivosatining soliqlar bazasi va uni aniqlash tartibiga tasir o'tkazish dastaklari tarkibining tahlii²

1-rasmda tasvirlangan chizmada soliq siyosatining soliq basasini aniqlash tartibiga ta'sir o'tkazish dastaklari o'z ifodasini kasb etgan bo'lib, bu jarayon soliq basasini samarali va adolatli joriy etishga oid qonunlar ishlab chiqish, soliq tushumlari jamg'arilishining innovatsion usullarini tadbiq etish, soliq basasini tahlil qilish orqali soliq mablag'larining ishlatalishi haqida ma'lumot to'plash, umumiy soliq tizimini tahlil qilish va soliq to'lovlarining elektron tizimini joriy etish, qolaversa, xalqaro tajribalarni o'rganish orqali uni amaliyatga tatbiq etish kabi choratadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi.

2-rasmda keltirilgan chizmaga muvofiq mulohaza qilsak, "foyda solig'i, qo'shilgan qiymat, aksiz solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining basasiga ta'sir etuvchi omillarning umumiyy jihatlari ko'rsatib o'tilgan hamda bu soliqlarga ta'sir etuvchi eng muhim va unga bog'liq omillar sifatida soliq siyosatidagi o'zgarishlar deb e'tirof etilgan"^[10].


Yuqoridaq tahlillardan angash mumkinki, soliq siyosatining soliq solinadigan bazaga ta'siri katta ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, soliq siyosatining soliq basasiga ta'siri muhim bo'lishining asosiy sabablarini birinchidan daromadlarni shakllantirish sababi orqali



2-rasm. Soliq basasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibining tahlii³


izohladik. "Xususan, soliq siyosati davlat tomonidan yig'iladigan daromadlar miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan stavkalar va imtiyozlarni belgilaydi. Bu orqali davlat xizmatlarni va ijtimoiy ta'minot dasturlarini moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan soliq tushumlari hajmiga ta'sir ko'rsatish e'tiborga olinsa, ikkinchi sabab sifatida iqtisodiy o'sish va investitsiyalar hisobga olindi. Bunda soliq siyosati soliq bazasi tartiblarini o'zgartirishi muayyan faoliyatni rag'batlantrish yoki cheklashi mumkinligi nuqtayi nazaridan kelib chiqiladi"^[11].

Soliq yukining taqsimlanishi esa uchinchi sabab hisoblanib, soliq siyosatida soliq yukining soliq to'lovchilar o'rtaasida adolatli taqsimlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi nazarda tutilgan bo'lsa, muvofiqlik va ma'muriyat masalalari to'rtinchasi sabab bo'la oladi. Bu omil soliq solinadigan bazani to'g'ri belgilovchi samarali soliq siyosati orqali soliq to'lovchilar uchun o'z majburiyatlarini bajarishni soddallashtiradi va soliq organlari uchun ma'muriy yuklarni kamaytiradi. Beshinchi sabab hisoblangan xalqaro raqobatbardoshlik qobiliyatni sarmoyaviy qarorlar va transchegaraviy savdoga ta'sir ko'rsatuvchi soliq bazasini aniqlashsha doir o'zgartirishlar orqali mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatishini nazarda tutadi.



3-rasm. O'zbekiston soliq sivosatining rivojlanish bosqichlari va uning soliq basasiga ta'sirining tahlii⁴

Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati va uning soliqlari basasiga ta'sirini izohlash uchun mustaqillikka erishilgan davrdan to'hozirgi kungacha bo'lgan muddatni ma'lum bosqichlarga taqsimlagan holda ko'rib chiqishni maqul topdi. Bu bosqichlarni 3-rasmda o'z aksini topgan. Keltirilgan ushbu davrlar to'rt bosqichni o'z maksimal soliq siyosatida deb izohlanadi va bu yillardagi soliq siyosatasi asosan fiskal nuqtayi nazardan olib borilgan bo'lsa, ikkinchi davr, 1998-2008-yillar yangi soliq kodeksining qabul qilinishi bilan olib borilgan iqtisodiy rivojlanishish soliq siyosatini qamrab oladi. Bu davr soliq basasini aniqlash tartiblari bir muncha takomillashgani va berilgan imtiyozlar hisobiga soliq yuki qilinishi yanada takomillashdi. Qolaversa, natija bermay qo'yan soliq imtiyozlarining bekor qilinishi va boshqa




4-rasm. Soliq siyosatining soliq bazasiga ta'sirini baholashning ierarxivali tahlid⁵

xususiyatlarning ko'rib chiqilishi oqibatida soliq bazasini aniqlash tartibi samarali tashkil etildi.

Shuningdek, 2020-yildan boshlab yurgizilayotgan soliq siyosatini tom ma'noda optimal soliq siyosati deyish maqsadga muvofiqdir. Xususan, bu davrda Yangi O'zbekiston Soliq kodeksi qabul qilinishi bir xil bazaga ega soliqlarning unifikatsiya qilinishini taqozo etdi. Soliq ma'murchiligidagi raqamlashtirish va elektron jarayonlar kuchaytirilishi va keng ko'lamli imtiyozlar hisobiga soliq bazasi sifat jihatden kengaydi.

Tadqiqotimiz davlat soliq siyosatining soliq bazasiga tasirini baholash bilan bog'liq jarayonlarning ierarxiyalini chizmasi 4-rasmida aks ettirilgan bo'lib, jumladan, davlat o'z soliq siyosatini belgilash va uni amalga oshirishda uch xil usuldan foydalananish imkoniyatlari va bu imkoniyatlarning soliqlarning bazasiga qay darajada ta'sir etishi tasvirlangan. "Xususan, davlat progressiv soliq siyosati yo'nalişidan foydalanganda, uning asosiy maqsadi soliqlarni ko'proq undirishga qaratilgan choradibirlar yig'indisidan va soliq to'lovchilar uchun soliq bazasini kengaytirish vaziyatini keltirib chiqarishdan iborat bo'lsa, regressiv soliq siyosatidan davlatning ko'zlagan pirovard maqsadi – soliq yukini kamaytish orqali soliq to'lovchilarga ko'proq imkoniyatlarni taqdim etish, buning zamirida real sektorlar qo'lida ko'proq kapital miqdorini qoldirish hisobiga ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va aholi farovonlik darajasini oshirishdan tashkil topgan bo'ladi. Ushbu vaziyatda qo'llanilgan soliq stavkalarining pasaytirilishi, maxsus soliq rejimlarini joriy etish, turli soliq imtiyozlari va preferensiyalarini taqdim etilishi kabi choralar hisobiga soliq to'lovchilarining soliq bazasining qisqarish holati yuz bersa, barqaror soliq siyosatida davlatning iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqqan tarzda barcha soliq siyosati yo'nalişlarining zarur unsurlaridan muvofiq'ini tanlagan holda qo'llash natijasida soliq to'lovchilar uchun soliq bazasi mo'tadillikni kasb etadi" [12].



5-rasm. Soliq siyosatining soliqqa tortish bazasiga ta'sirini baholash metodlari⁶

Shuningdek, soliq sohasida soliq siyosatining soliqqa tortish bazasiga ta'sirini mayjud usullari 5-rasmida tasvirlangan. 5-rasmda keltirilgan chizmadan tushunish mumkinki, soliq siyosating soliqlarni bazasiga ta'sirini baholashning soliq tizimida mayjud bo'lgan 5 ta usuli ko'rsatib berilgan. Bunda "Ekonometrik tahlil" usuli tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish, soliq siyosatidagi o'zgarishlar va soliq bazasi o'rtaisdagi bog'liqliki baholash uchun statistik ko'sratkichlardan foydalananish va muayyan soliq siyosati o'zgarishlari sabab soliq bazasidagi o'zgarishlarni o'rganish orqali ta'sirini baholashni nazarda tutsa, "Simulyatsiya modellari"da soliq stavkalari, imtiyozlar va chegirmalar kabi turli parametrlardan foydalaniлади.

Keng tarqalgan modellardan biri bo'lgan "Qiyosiy tahlil" usuli turli yurisdiksiyalarning soliq solish bazalarini turli soliq siyosatlari bilan solishtirishni o'z ichiga olsa, "Keys tadqiqotlari" modelida amaliy tadqiqotlar o'tkazadi va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish, suhabtar o'tkazish va soliq siyosati qarorlari soliq bazasiga qanday ta'sir qilganini tushunish uchun maxsus konteksti o'rganishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, "Mutaxassislarining fikri va so'rovleri" usulida tadqiqotchilar soliq siyosatining soliqqa tortish bazasiga ta'siri bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini tushunish uchun ushbu sohadagi mutaxassislarining fikrlarini to'plashlari yoki so'rovnomalar o'tkazishlari mumkin. Shuni ta'kidlash kerak, soliq siyosatining soliq solinadigan bazaga ta'sirini baholash murakkab vazifa bo'lib, hech qanday usul aniq javob bera olmaydi. Ko'pincha, ushbu usullarning kombinatsiyasi soliq siyosati qarorlari soliq solinadigan bazaga qanday ta'sir qilishini to'liq tushunish uchun qo'llaniladi.

Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение). Ushbu tadqiqoti amalga oshirish davomida quydagi savollar paydo bo'ldi: O'zbekistonda soliq bazasini aniqlash tartiblari soliq siyosatida qanday ahamiyatga ega va bugungi kunda qanday olib borilmoqda? Soliq siyosatining soliqlarni bazasi va uni aniqlash tartibiga tasir o'tkazish dastaklari tarkibi nimaldan iborat? Soliq siyosatining soliq bazasiga ta'sirini baholashda har bir soliq siyosatining maqsadi nima va ta'sir natijasi qanday? Soliq siyosati soliqqa tortish bazasiga ta'siri baholashning qanday metodlari mavjud? Yuqoridagi savollarga maqolada asosli javoblar shakllantirildi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения). Xulosa o'mida shuni ta'kidlash mumkinki, soliq siyosati soliq bazasini aniqlash tartiblariiga, xususan, soliq bazasiga bevosita ta'sir etuvchi omil sanalib, har bir davlatning soliq siyosati shu davlatning etnik xususiyatlardan, ijtimoiy-siyosiy mavqeiyidan, geografik joylashuvidan kelib chiqqan tarzda belgilanadi. Bu siyosatning belgilanishi, o'z navbatida, davlat byudjeti daromadlar qismining shakllanishida muhim rol o'yynadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblarini takomillashtirishning quyidagi yo'llarini e'tirof etish mumkin:

1. Soliq kodeksini soddalashtirish. Murakkab va samara bermayotgan soliq qonunlari soliq to'lovchilar uchun soliq bazasini to'g'ri aniqlanishini qiyinlashdirishi mumkin. Binobarin, ishlamaydigan imtiyozlar ko'lamini, foydalanish qiyin bo'lgan chegirmalar darajasini va bir-birini rad etadigan soliq qonunlarini qisqartirish. Soliq kodeksini xalqchil yo'sinda ishlab chiqish bazani aniqlash jarayonini soddalashtiradi va xatolarni bartaraf etadi.

2. Aniq ko'rsatmalar va misollar keltirish. Soliq organlari soliq to'lovchilarga soliq solinadigan bazani qanday to'g'ri hisoblashni tushunishlariga yordam beradigan aniq ko'rsatmalar va misollarni taqdim etishlari kerak. Bu har xil turdag'i daromadlar, ruxsat etilgan chegirmalar

va amaldagi soliq stavkalari bo'yicha bat afsil tushuntirishlarni o'z ichiga olishi lozim.

3. Onlayn resurslar va vositalarni taklif qilish. Soliq to'lovchilar uchun qulay bo'lgan onlayn resurslar va soliq qonunchiligi bazasini ishlab chiqish ular uchun soliq bazasini aniqlash jarayonini oson boshqarishga yordam beradi. Bu chora-tadbirlar sirasiga onlayn kalkulyatorlar, onlayn savol-javoblar va umumiy muammoli vaziyatlarni ko'rib chiqadigan tizimning takomillashuvni kabilarni kiritish mumkin.

References:

1. Data from Taxing Wages 2023 (OECD), <https://oe.cd/taxingwages>
2. Alan J. Auerbach., Martin Feldshteyn., "Handbook of Public Economics volume 4", - October 21, 2002. Editors: A.J. Auerbach, M. Feldstein. Hardback ISBN: 9780444823151.
3. Musgrave R. A. Tax Analysis in Developing Country Settings. – World Bank, 1989.
4. Goolsbee A. Public policy in an AI economy. – National Bureau of Economic Research, 2018. – №. w24653.
5. Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – T. 1. – C.
6. Stiglitz J. E. On liberty, the right to know, and public discourse: the role of transparency in public life. – 1999.
7. Saez E., Slemrod J., Giertz S. H. The elasticity of taxable income with respect to marginal tax rates: A critical review //Journal of economic literature. – 2012. – T. 50. – №. 1. – C. 3-50.
8. Клейменова М.О. Налоговое право: учебное пособие. - Московский финансово-промышленный университет "Синергия", 2013 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/57650527>
9. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ. <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>
- 10,11,12. Xalikchayeva, S. (2023). Soliqa tortish sohasini tartibga solishda soliq bazasini aniqlashning metodologik asoslari. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(3), 62–72. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp62-72...>